
“Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJning "Eng faol innovator ayoli" aniqlandi

// 05.02.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qizilqum-fosforit-kompleksi-mchjning-eng-faol-innovator-ayol



“Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda xotin-qizlarning kasblar va ixtisosliklarini chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash maqsadini ko‘zlagan “Eng faol innovator ayol” ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi.



Mazkur “Eng faol innovator ayol” ko‘rik-tanlovi uchun jamiyat bo‘lim va sexlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning korxona iqtisodiy samaradorligini ko‘taruvchi g‘oyalari taqdim qilindi.



Ishtirokchilarning loyihalarini baholashda ishlarning o‘ziga xosligi va dolzarbligiga e’tibor qaratildi.



Tanlov yakuniga ko‘ra,
- birinchi o‘ringa Kadrlar bo‘limi muhandisi Gulnoza Achilovaning loyihasi;
- ikkinchi o‘ringa Xo‘jalik ishlari bo‘limi xodimasi Moxira Xamrayeva loyihasi;
- uchinchi o‘ringa esa Ishlab chiqarish texnik bo‘limi mutaxassisi Urakova Barno loyihasi munosib deb topildi.





G‘oliblarga diplom va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

"Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ Matbuot xizmati